# JANUBIY KOREYANING IQTISODIY MO‘JIZASI

Abdusamatova Mashhura Abdulahat qizi
KIUT-KOR-N-25UA-guruhi 1-kurs talabasi.
abdusamatovamashhura0@gmail.com

**Annotatsiya**: Mazkur maqolada Janubiy Koreyada qanday iqtisodiy rivojlanishlar bo‘lganligini va qay darajada o‘zgarganligi, Yaponiya bilan aloqalari Janubiy Koreyaga rivojlanishda yordam bergan davlatlar haqida va shu kabi yo‘nalishlardagi bir qator ma’lumotlarga ega bo‘lishingiz mumkin.

**Kalit so‘zlar**: Janubiy Koreya, Zimbabve, Angola, Chexiya, Burundi, Uganda, Shvetsiya, Norvegiya, Afrika, Pak Chon Xi, YaIM, Misr, Yugoslaviya, LG, Samsung, Hyundai, Xitoy, AQSh, Tayvan, Vyetnam, chebollar, O‘zbekiston.

**Abstract**: In this article, you can learn about the economic developments in South Korea and the extent to which they have changed, about countries whose relations with Japan have helped South Korea develop, and a number of other information in similar areas.

**Keywords**: South Korea, Zimbabwe, Angola, Czech Republic, Burundi, Uganda, Sweden, Norway, Africa, Park Chung-hee, GDP, Egypt, Yugoslavia, LG, Samsung, Hyundai, China, USA, Taiwan, Vietnam, chaebols, Uzbekistan.

**Аннотация**: В этой статье вы можете узнать об экономическом развитии Южной Кореи и масштабах произошедших изменений, о странах, чьи отношения с Японией способствовали развитию Южной Кореи, а также получить ряд другой информации по аналогичным вопросам.

**Ключевые слова**: Южная Корея, Зимбабве, Ангола, Чехия, Бурунди, Уганда, Швеция, Норвегия, Африка, Пак Чон Хи, ВВП, Египет, Югославия, LG, Samsung, Hyundai, Китай, США, Тайвань, Вьетнам, чеболы, Узбекистан.

Janubiy Koreya. Aynan mana shu davlat 60-yillarning boshlarida Zimbabve va

Angola kabi qashshoq davlatlardan biri edi. Bugungi kunga kelib esa 60-yildan so‘ng Burundi yoki Uganda singari mamlakatlar yuqori texnologiyalar bo‘yicha lider davlatlarga aylanadi. Bu yerlarda qashshoqlik bo‘lmaydi va o‘rtacha umr ko‘rish yoshi Shvetsiya yoki Norvegiyaga qaraganda yuqoriroq bo‘ladi deb aytadigan bo‘lsak birozgina kulgiga ham qolishimiz mumkin. Agarda hozir men sizlarga Janubiy Koreyaning 1960-yildagi aholi jon boshiga daromadi, Afrikadagi Namibya yoki Mozombiknikidan ham kam bo‘lgan edi deb aytadigan bo‘lsam ham sizlar bunga ishonmasligingiz mumkin albatta. Biroq, vaqtlar o‘tib 2020-yilga kelib, Janubiy Koreyaning bunday tez fursatlarda dunyoning uchinchi o‘rnidan birinchi o‘ringa o‘tganligini ko‘rmoqdamiz. Bugungi kunga kelib, uning aholi jon boshiga daromadi Ispaniya va Italiyanikidan yuqori. Buyuk Britaniya bilan esa deyarli tengdir. Bu davlatda qashshoqlik taxminan 5% ni tashkil etadi. Boylar va kambag‘allar o‘rtasidagi farq esa Yevropa Ittifoqidagi o‘rtacha ko‘rsatkichlarga yaqin va bundan tashqari hozirgi vaqtda Janubiy Koreya aholining o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi bo‘yicha dunyoning birinchi o‘ntaligiga ( 83,5 yosh, bu Fransiya va Kanada kabi mamlakatlardan yuqori) kiradi.

Janubiy Koreya eksportining katta qismini murakkab tarmoqlar, ya'ni elektronika, avtomobillar, yuk mashinalari va yuqori texnologiyalar tashkil etadi. Shu jumladan, Janubiy Koreya innovatsiya sohasiga dunyoda eng katta kuch sarflayotgan mamlakat hisoblanadi. Shu o‘rinda aytib o‘tish kerakki: u o‘zining yalpi ichki mahsulotining 4,3 %ini ilmiy-tadqiqot va ishlanmalarga sarflaydi. Bu esa hatto rivojlangan mamlakatlarning ham o‘rtacha ko‘rsatkichlaridan ancha yuqori hisoblanadi. Misol keltirib aytadigan bo‘lsak, bu ko‘rsatgich O‘zbekistonda 0,5% ga teng va 2020-yildan 0,8% ga ko‘tarish maqsad qilingan. Bu mamlakatdagi Samsung, LG yoki Hyundai kabi yirik kompaniyalarning muvaffaqiyati ham aynan shunga bog‘liqligi ko‘zda tutilgan. Bular Janubiy Koreyadagi ishlab chiqarish tuzilmasining yadrolari shular jumlasidandir.

1960-yillar Janubiy Koreya tarixida katta burilish davri bo‘lgan. Dahshatli o‘n yilliklardan so‘ng ya'ni 1910-1945-yillarda Yaponiyaning bostirib kirishi va undan keyin 1950-1953-yillarda Koreyadagi qonli urushlar shular jumlasidandir. 1961-yildan boshlab esa Janubiy Koreya, davlat to‘ntarilishini amalga oshirgan general Pak Chon Xi boshchiligida rivojlanish bosqichiga kirishgan. 1979-yil Pak Chon Xining o‘limigacha bo‘lgan 18 yil davomida Koreyada aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan YaIM yiliga 7,1% dan o‘sib bordi. Agarda 1961-yilda Janubiy Koreyaning aholi jon boshiga YaIM Namibiya yoki Mozambiknikidan kam bo‘lgan bo‘lsa, 1979-yilga kelib, Misr va Yugoslaviyaga tenglashib oldi. General Pak siyosatining ta’siri 21-asrda ham davom etdi. 2013-yildan 2017-yilgacha uning qizi - korrupsiya uchun lavozimidan chetlatilguncha - mamlakat prezidenti bo‘lgan edi.

Bu davlatning rivojlanish holatiga nazar tashlaymiz, Yaponiya rivojlanish modelidan ilhomlangan Janubiy Koreya strategiyasi, davlat tomonidan sanoatga yo‘naltirilgan katta kuchga ega bo‘lgan. Davlatning iqtisodiy sohaga aralashuvi sanoat sohalarini to‘g‘ri tanlab rivojlantirish choralari orqali ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish va murakkablashtirish uchun zarur bo‘lgan va aynan shuning uchun 1960-yillarda sanoatning asosiy yo‘nalishlarida birinchi sektor ustunlik qilgan edi. Koreyada ishlab chiqilgan iqtisodiy va sanoat siyosatlariga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, bularga: strategik sohalarga cheklangan vaqt davomidagi bojxona himoyasi; ma’lum bir hashamatli tovarlarning ichki marketingini taqiqlash; texnologik ta’limni rivojlantirish va iqtisodiyotning ayrim sohalarida xorijiy investitsiyalarni tartibga solish; sanoat mahsulotlari eksporti uchun subsidiyalar; arzon iste’mol kreditlari kiradi.

Janubiy Koreyadagi transmilliy korporatsiyalarning o‘zaro bog‘liqligi shundan iborat bo‘lib, sanoatlashtirish jarayonining kuchli dinamik ishtirokchilari asosan mahalliy kompaniyalar bo‘lgan va bular: LG, Samsung yoki Hyundai kabi oilaviy kelib chiqishga ega bo‘lgan yirik xususiy konglomeratlar ya'ni chebollar bo‘lgan edi. 1990-yilga kelgach, Janubiy Koreyada sanoatlashtirish jarayoni juda ham avjiga

chiqqan paytda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning YaIMga nisbatan ulushi 1,9% ni tashkil etgan xolos. Biroq, bu xalqaro standartlarga nisbatan juda past natija bo‘lgan edi. Taqqoslab ko‘rish uchun, ana shu yili rivojlanish strategiyasi sifatida chet el investitsiyalari uchun asosiy nuqta bo‘lgan Singapurda bu ko‘rsatkich 78,5% ga chiqqan edi.

Janubiy Koreya ham davlat ishchilari sinfiga nisbatan repressiv ta’sir ko‘rsatgani rost edi. Lekin u intizomli xususiy kapitalni ham o‘zining rivojlanish rejalariga moslashtira oldi. Chunki 1960-yillarning boshlarida Janubiy Koreyaning mahalliy elitalari nisbatan zaif bo‘lgan, masalan, daromadlarni o‘rtacha teng taqsimlashda aks etgani shular jumlasidandir. Bu esa yer egalari sinfi yo‘q qilinishiga olib kelgan 1940-yillarda amalga oshirilgan agrar islohotlarning natijasi edi Mana shunday qilib, mahalliy elitaning zaifligi va davlatning to‘lov qobiliyatining yuqoriligi sanoat ishlab chiqarishida yaxshi ko‘rsatkichlarni berdi. Natijasida esa davlat va xususiy sektor kompensatsiyasiz subsidiyalar o‘rniga o‘zaro kelishuvga erishiv ishlashda davom etishdi. Boshqacha qilib aytadigan bo‘lsam, davlat xususiy sektorlarga resurslar va daromadlarni qayta taqsimladi. Ularning effektivligini oshirishni texnologik tayyorgarlik, innovatsiya va jazolanish tahdidi orqali amalga oshirishga muvaffaq bo‘ldilar.

Janubiy Koreyaning eksportga yo‘naltirilgan iqtisodiyotiga ham qisqacha to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, " Dastlab Janubiy Koreya yengil sanoat mahsulotlari - to‘qimachilik va poyabzal eksport qilgan bo‘lsa, keyinchalik og‘ir sanoat, kemasozlik, avtomobilsozlik rivojlandi. Hozirgi kunda esa elektronika, yarim o‘tkazgichlar, axborot texnologiyalari va innovatsion mahsulotlar asosiy eksport tarmoqlariga aylangan.

Janubiy Koreyaning ham Yaponiya va Tayvan singari rivojlanishdagi hal qiluvchi omil AQSHning yordami bo‘lgan edi. Sharqiy Osiyo ham Sovuq urushning katta sahnalaridan biri bo‘lgan va bu yerda ikki Koreya o‘rtasidagi kelishmovchiliklar,

kommunistik Xitoy va kapitalistik Tayvan o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar va Vetnam urushi Sharqiy Osiyo mamlakatlarining rivojlanishida katta ahamiyatga ega edi. Kommunistik kengayishning oldini olish maqsadida AQSH Janubiy Koreyaning rivojlanishini faol ravishda qo‘llab-quvvatlagan. Masalan, Janubiy Koreya ishlab chiqaruvchilariga o‘z bozorini ochib valyuta va texnologiya taqdim etdi. Shuningdek, transmilliy kompaniyalarning ishlab chiqarish faoliyatidagi ishtirokini kamaytirishga rozi bo‘ldi. Yana bir qo‘shimcha qilish mumkinki, Janubiy Koreyadagi savdo balansi defitsiti faqat 80-yillarga kelib to‘xtagan. O‘sha paytgacha, ayniqsa, 60-yillarda AQSHning tashqi yordamlari, to‘lov balansi muvozanatini saqlashda va iqtisodiy o‘sishni sekinlashtirgan dollar taqchilligini oldini olishda muhim ahamiyat kasb etgan.

Yuqorida aytib o‘tganimiz, ya'ni chebollar haqida ham ma’lumotlarni ko‘rib chiqamiz. Bir qarashda Janubiy Koreya tajribasi " Davlat faqat o‘yin qoidalarinigina kafolatlashi kerak " degan liberal postulatga qarshi chiqayotgandek ko‘rinadi. Janubiy Koreya - boshqarish qobiliyatiga ega bo‘lgan kuchli davlat mexanizmlari tufayli, jamlangan katta sarmoyalar rivojlanish uchun asos bo‘lishi mumkinligini isbotlagan mamlakatga yaqqol misol bo‘lishi mumkin. Pak Chon Xi kichik va o‘rta korxonalarni emas, balki chebollarni afzal ko‘rishiga bir nechta sabablar bor. Birinchi sababni keltiradigan bo‘lsak, kichik va o‘rta korxonalar bilan o‘zaro munosabat, yuqori atomizatsiyalangan subyektlar bilan ishlashni anglatadi va bu muvofiqlashtirishni qiyinlashtiradi, ikkinchidan esa kichik va o‘rta korxona subyektlari tezkor texnologik o‘zgarishlar uchun unchalik katta potensialga ega emasligi seziladi. Birgina Samsung kompaniyasi ekskavator va kemalardan tortib bugungi kundagi eng ilg‘or texnologiyalarga asoslangan smartfonlargacha ishlab chiqaradi. Bular Janubiy Koreyaning iqtisodiy tuzilishida katta ahamiyatga ega bo‘lganligi uchun mamlakat siyosatiga ham kuchli ta’sir ko‘rsatgan. 1960-1970-yillarda davlat ularni tartibga solishga muvaffaq bo‘ldilar. Biroq, 1980-yillardan boshlab o‘tgan 10 yilliklarda katta kapital to‘planishi sababli, chebollar o‘z kuchini oshirdi va shu bilan birga davlatning

iqtisodiy tartiblarga aralashuvini kamaytirishni qila boshladilar. 1990-yillarning oxirida sobiq iqtisodiy tizimni isloh qilish jarayoni boshlandi. Xalqaro valyuta jamg‘armasi va boshqa xalqaro tashkilotlar ko‘magi bilan moliya sektori mustahkamlandi va an’anaviy oilaviy biznes tuzilmalarining zamonaviy aksionerlik jamiyatlariga o‘tish jarayoni sodir bo‘ldi. 2000-yillarda Janubiy Koreya yirik sanoat korxonalarini tashkil qilish uchun soliqlar va ma’muriy ruxsatnomalarni kamaytirdi va buning natijasida Janubiy Koreya iqtisodiyotida Hyundai Totem, Daewoo Shipbuilding & Marine Engineering, Times Aerospace Korea kabi o‘nlab yirik kompaniyalar paydo bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasida ham juda ko‘p sohalarda Koreya Respublikasining tajribalaridan foydalanishga harakat qilinadi. Biroq, bu harakat doim ham o‘z samaradorligini ko‘rsatavermaydi. Sharqiy Osiyo mamlakatlaridagi davlat intervensionizmining O‘rta Osiyo kabi boshqa rivojlanayotgan mamlakatlardagi intervensionizmidan ajralib turadigan omillardan biri intensiv avtoritarizmning bir qismi sifatida olib borilgan davlat siyosatining yuqori sifati edi.

**Foydalanilgan adabiyot**

1. Шокиров А.А. Основные направления развития экономической политики Республики Корея. Казанский вестник молодых ученых. 2019. Том 3. № 1 (9). С. 96-108.

2. XXI asr: fan va ta'lim masalalari" ilmiy elektron jurnali. №3, 2024 yil ISSN: 2181-9874 SJIF 2022: 6.698

3. Kim Lin Su. Imitation to innovation or The Dynamics of Korea's technological learning.Seoul, 1999. 11. Sul Chul Gun. Innovation, competitiveness and growth: Korean Expirience. Seoul, 2008.

4. XXI asr: fan va ta'lim masalalari" ilmiy elektron jurnali. №3, 2024 yil ISSN: 2181-9874 SJIF 2022: 6.698

5. World Development Indicators, "Foreign Direct Investment 2014", 2014. URL: http://datacatalog.worldbank.org/